2«11»2022 yil. **1281-4-64-TB/2022-son**

## PUDRAT SHARTNOMASI

**"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" mas`uliyati cheklangan jamiyati** (tashkilot, korxona nomi) keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi, uzining **Nizomi** (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi boshligi **X.S.Elmirzaev** (vazifasi, familiyasi, ismi) bir tomondan,**Muborak tuman Tibbiyot birlashmasi** (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining **Nizomi** (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi direktori **N.I.Murtazaev** (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" « Buyurtmachi»ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta xujjatlari va **27.10.2022- yilda TXABning** maxsus portaliga berilgan **22110012166614-** lotga asosan Muborak tuman Tibbiyot birlashmasiga IFA Laboratoriyasi o`chun Bino erto`lasining sifatli joriy ta'mirlash va Laboratoriya jihozlari bilan jixozlash xizmatlari uchun, «Buyurtmachi» bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

### 2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

2.1.Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan tanlov natijalariga kura loyixa smeta xujjatlarida kursatilgan konteynerlarni sifatli joriy tamirlash ishlarining ya'ni shartnomaning umumiy summasi **492350000** **(To`rt yuz tuqqson ikki million uch yuz ellik ming)** sumni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi « **02** » **Noyabrь** 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti « **31** » **Dekabrь** 2022 yil.

### 3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BUYICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. SHartnomadagi kursatilgan avansni «Pudratchi» olgandan sung-ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. «Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlash to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlash tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan sung ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi

### 4.TO'LOVLAR VA XISOB KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **492350000 (To`rt yuz to`qson ikki million uch yuz ellik ming)** sumni tashkil qiladi. Buyurtmachi» tamirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma summasining 30 % yoki **147705000 (Bir yuz qirq etti million etti yuz besh ming)** sum 00 t miqdorda oldindan tulaydi. Qolgan 70 % yoki **344645000 (O`ch yuz qirq to`rt million olti yuz qirq besh ming)** sumni ya'ni yakuniy tulovni «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjat f-2, f-3, yoki dalolatnoma taqdim qilingandan sung amalga oshiradi.

4.2.«Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.
4.3.«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshikcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## 5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. SHartnoma summasi **492350000 (To`rt yuz to`qson ikki million uch yuz ellik ming)** sum bo'lgan ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatib binoni foydalanishga topshirish.
5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb kiladi.
5.3. Har oyning 30 sanasida joriy oyda bajarilgan ta'mirlash ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to'laydi:
- ta'mirlash muddati 30 kunga kechiktirilsa, shartnoma baxosidan 0,2 % mikdorida;
-keyingi 30 kun uchun shartnoma bahosidan 0,3 % miqdorida;
-undan keyingi muddatlar uchun 5 % miqdorida;
Jarima sanksiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.
5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar tugrisida 2- sonli dalolatnomani tuzadi..

## 6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

6.1. SHartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0 % mikdorida «Pudratchiga» jarima to'laydi.
6.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.
6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq forma 2-3 va dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi

## 7. KAFOLATLAR

**Pudratchi**:
7.1. Barcha ishlar tuliq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
Loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'erlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
Uzi tomonidan ta'mirlash uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob uskunalari va butlovchi buyumlar,konstruksiya va tizimlar sifatini,ularning loyixa xujjatlarida kursatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;
Ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaqtida bartaraf qilishni;
Ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.
7.2. Agar ob'ekdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuksonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning uz xisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning 4.1. bandida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish xuquqiga ega.

7.3. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar kursatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda,ularni tekshirib chikish «Davlat arxitektura kurilish nazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi,bu tomonlarning Ushbu masala buyicha xujalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi. joriy ta'mirlash ishlari qabul qilib olish dalolatnomani imzolangan kundan boshlab kamida 3 uch oy etib belgilanadi.

## 8. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

8.1 Tomonlar ushbu shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo`ladilar va qonund belgilangan tartibda neustoyka to'laydilar. (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno)

## 9.TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

9.1.Ushbu shartnoma buyicha yuzaga keladigan baxs va munozaralar tomonlar urtasida kelishuv yuli bilan, yoki tomonlar uzaro kelisha olmagan xollarda esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

## 10.SHARTNOMANING KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISH MUDDATI

10.1 Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 122-moddasi 3-bandiga muvofiq tegishli tartibda Gaznachilik bulinmalaridan ruyxatdan utkazilgandan kiyin qonuniy kuchga kiradi. SHartnomaning amal qilish muddati **« 31» Dekabr 2022 yilgacha.**

## 11. FORS MOJOR

11.1 Aytib bo'lmaydigan, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar fors-major) tufayli taraflarda bir shartnomani bajarmagan yoki lozim darjada bajarilmaganligi isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

## 12. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

12.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarinini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda,moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

12.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

12.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar

korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

12.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga haqli emas.

## 13. BOSHQA HOLATLAR.

13.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

## 14. Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari

| «PUDRATCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" mas`uliyati cheklangan jamiyati**<br>(ijrochining nomi) | **Muborak tuman Tibbiyot birlashmasi**<br>(buyurtmachining nomi) |
| Manzil: Muborak tumani Quruvchilar MFY | Manzil: Muborak tumani Istiqlol MFY |
| tel\faks 97-200-01-51<br>X\r 20208000704792180001.<br>Bank nomi: Mikro kredit bank Koson filiali<br>MFO: 00163 INN: 301267655<br>OKONX: 61133 | tel\faks 55-401-15-69<br>byudjetdan mablag oluvchi<br>INN :200 699 232 OKONX: _91 511<br>SHxr 401722860102347073101054002<br>**Gaznachilik bulinmasi nomi.**<br>Uzb. Respublikasi Moliya Vazirligi Gaznachiligi<br>X\r 23 402 000 300 100 001 010<br>Bank:Markaziy bank Toshkent sh boshqarmasi XKKM<br>MFO: 00014 INN: 201 122 919 |
| Raxbar: **X.S.Elmirzaev** | Raxbar: **N.I.Murtazaev**<br>(F.I.SH.) |
| (imzo)<br>M.U. | (imzo)<br>M.U. |

| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
|---|---|---|
| | Imzolovchi F.I.SH. | NODIRJON MURTAZAYEV ISMATOVICH |
| | Imzolangan sana | 02.11.2022 16:08 |
| | Hujjat kodi | **HV1237601617** |
| | Hulosa kodi | **FI7507444862** |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

FI7507444862

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" mas`uliyati cheklangan jamiyati 492350000 bilan Pudrat shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Muborak tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 02.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Muborak tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**I.A.XO'JAMURODOV**

02.11.2022

1281-4-64-TB/2022-sonli shartnomaga
ILOVA

**Korrupsiyaga qarshi qoidalarining**
**ASOSIY SHARTLARI**

1. Tomonlar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya’ni Tibbiyot birlashmasi xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va’da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to‘lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo‘yicha bir Tomon Tibbiyot birlashmasi xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali (“@anticorbot”);

Tibbiyot birlashmasi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

**TOMONLAR:**

| | |
|---|---|
| **Bajaruvchi:** **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" MCHJ** | **Muborak tuman tibbiyot birlashmasi** |
| **rahbari X.S.Elmirzaev** (F.I.O) | **rahbari N.I.Mortazaev** (F.I.O) |
| (imzo)__________ | (imzo)__________ |

« ТАСДИКЛАЙМАН »

Муборак туман тиббиёт бирлашмаси

бошлиги: Н.И.Муртазаев

01.11.2022 йил Муборак туман

№ 13

Муборак туман тиббиёт бирлашмасига IFA Лабораторияси учун Бино Ертуласини жорий таъмирлаш ва Лаборатория жихозлари билан жихозлаш билан таъминлаш танлов асосида шартнома тузиб Лаборатория учун Бино ертуласини сифатли таъмирлаб ва сифатли Лаборатория жихозлари билан таъминлаб бериш хизматларини ташкил килиш комиссиясининг.

## ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ

| | |
|---|---|
| Комиссия раиси Касаба уюшма райиси | Р.Абдухалимов |
| **АЪЗОЛАРИ** | |
| Бош врач муовини | Н.Остонов |
| Хужалик мудири | Ж.Шарипов |
| Бош хисобчи | А.Эшкувватов |
| Бош хисобчи уринбосари | Ш.Норбоев |

### Кун тартибида куриладиган масала

Муборак туман тиббиёт бирлашмасига IFA Лабораторияси учун Бино Ертуласини жорий таъмирлаш ва Лаборатория жихозлари билан жихозлаш хизматлари учун **2022** йил **etender.uzex.uz** портали оркали шартнома килиш ва шартномани тасдиклаш тугрисида

Комиссия танлов конкурсга катнашган вакилларнинг таклифларини куриб чикиб Муборак туман тиббиёт бирлашмасига IFA Лабораторияси учун Бино Ертуласини жорий таъмирлаш ва Лаборатория жихозлари билан сифатли жорий таъмирлаб бериш таъминлаш буйича 2 та хусусий корхона катнашаётганлигини эълон килди.

**Улар куйидагича**

Танлов конкурс буйича 2022 йил 27- октябрь кунида **лот №22110012166614-сонли** протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан катнашди ва энг юкори бал **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" MCHJ** олди ва 2 кун мухокамада куйилди хамда бошка эътирозлар булмагандан кейин

**"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" MCHJ** билан шартнома тузилди.

### ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ КАРОР КИЛАДИ:

1 **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" MCHJ голиб деб топилсин**

2 **"MUBORAK ME`MOR MAXSUS IXTISOSLASHGAN QURILISH TAMIRLASH" MCHJ корхонаси томонидан тавсия этилган** IFA Лабораторияси учун Бино Ертуласини жорий таъмирлаш ва Лаборатория жихозлари билан жихозлаш хизматлари учун сифатли жорий таъмирлаш билан таъминлаш учун шартнома тузиб кабул келишини хужалик мудири **Ж.Шариповга** топширилсин.

**3** Ушбу баённома карорини бажарилишини назорат килиш бош хисобчи **А.Эшкувватовга** юклатилсин

| | |
|---|---|
| Комиссия раиси | Р.Абдухалимов |
| АЪЗОЛАРИ | Н.Остонов |
| | Ж.Шарипов |
| | А.Эшкувватов |
| | Ш.Норбоев |